
TASHABBUSLI BYUDJET: Maktabgacha ta'lim tashkilotining atrof devorlari yangilanmoqda

"Tashabbusli byudjet" orqali ko'plab mahallalarning infratuzilmasi yaxshilanmoqda, korxonalar va tashkilotlarning moddiy-texnik bazasi yaxshilanmoqda, shuningdek ta'lim muassasalari bo'yicha tushgan takliflar ham g'olib bo'lib, qurilish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

23-DMTTning atrof devorini yangilash bo'yicha tushgan taklif tashkilot xodimlari, mahalla fuqarolari hamda ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Qurilish korxonasi tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotining 300 metrdan ortiq atrof devorini yangilash hamda ikkita yozgi ayvonlar qurish uchun 300 mln. so'mga yaqin mablag' ajratilgan. Hozirda ishchilar tomonidan pardoqlash ishlari bajarilmoqda.

"Bo'ston" mahalla fuqarolar yig'ini aholisi va maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari hamda tarbiyalanuvchilari amalga oshirilayotgan ishlardan, yosh avlod uchun berilayotgan e'tibordan mamnun bo'lishmoqda.

2023-08-18 11:06:09